O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
**Iqtisodiyot fakulteti dekani v.b**
_______ U.Eshmuradov
2026-yil “26” 06

**MENEJMENTGA KIRISH**
**FANINING O‘QUV DASTURI**
(Masofaviy ta’lim shakli)

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | - Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410000 | - Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60410800 | - Menejment |

**Samarqand – 2026**

Mazkur o‘quv dasturi Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2026-yil 26.06 11-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 24.06 11-sonli yig‘ilish bayoni).

**Tuzuvchilar:**

A.T.Raxmonova –Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti i.f.f.d.(PhD).

M.U.Xudoyberdiyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti.

**Taqrizchilar:**

B.SH.Musayev - i.f.f.d.(Ph.D),Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasi professori v.b.

M.M.Shakarov -Xamkorbank ATB Bog‘ishamol YBXO boshqaruvchisi.

| 1. | Fan ma'lumotlari | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul kodi<br>INTMAN1315 | O'quv yili<br>2026-2027 | Semestr<br>4 | | | ECTS – Kreditlar<br>5 | | |
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek | O'quv rejadagi tartib raqami<br>60410800 – 1,16 | | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | | |
| Fanning nomi<br>Menejmentga kirish | Jami yuklama (soat) | Auditoriya mashg'ulotlari jami – 60 soat, shundan: | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Kurs ishi | |
| | | Ma'ruza | Seminar | Lab-ya | | | |
| | 150 | 30 | 30 | - | 90 | - | |

| 2. | Fanning mazmuni |
|---|---|

Fanning maqsadi – talabalarga ko'zlangan natijalarga erishish uchun talab etiladigan kuch-g'ayratni va tashkiliy harakatlarni o'z ichiga qamrab olish, amaldagi holatdan ko'zlangan maqsad uchun korxona barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga, tadbirkor bo'lishga, o'zining moliyaviy ko'rsatkichlari va ish faoliyatini maqsadli amalga oshirishga intilish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifalari – jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va menejment amaliyotini umumlashtirish asosida agroiqtisodiyotni samarali boshqarish uchun zarur bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

| 3. | Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar |
|---|---|
| 1. | ( IQTNAZ1106) Iqtisodiy nazariya |
| 2 | (ITT1105) Iqtisodiy ta'limotlar tarixi |
| 3 | (AKKK1204) Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik |

| 4. | Ta`lim natijalari (TN) |
|---|---|
| | ***Kasbiy kompetensiyalar:*** |
| TN1 | Menejmentning mohiyati va funksiyalari, menejment qonunlari va tamoyillari, xo'jalik faoliyati jarayonida menejerlar oldida turgan muammolar yechimi, menejment boshqaruvining o'ziga xos jihatlari bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak; |
| TN2 | Menejmentda rejalashtirishning o'rni va elementlarini, pul oqimlarini boshqarish xususiyatlarini, qarorlar qabul qilishda moliyaviy risklar ta'sirini baholashni bilishlari lozim; |

| | |
|---|---|
| TN3 | Korxonalarda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish va loyihalarni moliyalashtirish jarayonini boshqarish, investitsion faoliyatni boshqarish va loyiha samaradorligini baholash haqida bilimga ega bo'lishlari kerak; |
| TN4 | Qishloq xo'jaligi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va uni oshirish yo'llarini, mahsulot raqobatbardoshligini aniqlash hamda tahlil qilish, ilgor texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni jariy qilish va boshqarishni bilishi kerak; |
| TN5 | Moddiy resurslar va pul mablag'laridan samarali foydalanish yo'llari, mahsulot yetishtirishda sarf-xarajatlarni tejash va undan maqsadli foydalanish; |
| TN6 | Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va uning mehnat unumdorligini oshirish; |
| | ***Ko'nikmalar:*** |
| TN7 | Jamoa bilan ishlash, vazifalarni taqsimlash, vaqtni samarali boshqarish va resurslarni to'g'ri taqsimlash qobiliyatini biladi. |
| TN8 | Muammolarni aniqlash, turli variantlarni tahlil qilish va eng optimal yechimni tanlash qobiliyatini biladi. |
| TN9 | O'z fikrini aniq ifoda etish, tinglash, muzokaralar olib borish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini biladi. |
| TN10 | O'z vaqtini va jamoa vaqtini to'g'ri rejalashtirish, belgilangan muddatlarda ishni yakunlash ko'nikmasiga baho bera oladi. |

| 5. | **Fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:** | **Soat** |
|---|---|---|
| | **Ma'ruza (M)** | **30** |
| **M1** | **Kirish. Menejmentning nazariy asoslari.** *Menejment to'g'risida tushuncha. Menejment fanining predmeti va metodi. Menejment fanining evalyutsion rivojlanishi*.[1,2] | 2 |
| **M2** | **Menejment qonunlari va tamoyillari.** *Menejment qonun-qoidalari. Menejmentning tamoyillari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda davlatni boshqarish tamoyillari,beshta asosiy tamoyil*.[1,2] | 2 |
| **M3** | **Menejmentning madsadi va funksiyalari.** *Boshqaruv maqsadi tushunchasi Boshqaruv funksiyalari mazmuni va mohiyati. Boshqaruv funksiyalarini turlanishi. Boshqaruvning aniq va umumiy funksiyalari*.[2,2] | 2 |
| **M4** | **Boshqaruv qarorlari, korxonalarda qaror qabul qilish.** *Qishloq xo'jaligida boshqaruv qarorlari. Boshqaruv qarorlari va ularga qo'yiladigan talablar. Korxonalarda boshqaruv qarorlarni qabul qilish.*[2,3] | 2 |
| **M5** | **Boshqaruv usullari.** *Boshqaruv usullari mazmuni va tushunchasi.* | 2 |



| | |
|---|---|
| 10 | https://www.bris.ac.uk/unit-programme-catalogue/UnitDetails.jsa?ayrCode=26%2F27&unitCode=EFIM10015 |

| |
|---|
| ➢ fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;<br>➢ fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;<br>➢ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;<br>➢ bayon qilish ravon bo'lmasa;<br>➢ fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;<br>➢ fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa. |
| **e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:**<br>➢ fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;<br>➢ fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;<br>➢ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajarmagan bo'lsa;<br>➢ fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;<br>➢ fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;<br>➢ fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;<br>➢ fanni bilmasa. |


| 10. | **Foydalanilgan adabiyotlar** |
|---|---|
| | **Asosiy adabiyotlar** |
| 1. | Yo'ldoshev N.K., G.E.Zoxidov. Menejment . Darslik "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", Toshkent, 2018-yil., 392-394 bet. |
| 2. | I.S.Salamov Z.S.Qazaqova Sh.R.Nurmonov Menejment va marketing. Darslik.Samarqand 2023. |
| 3. | Alikulov A. Zamonaviy menejment asoslari Darslik. T.Fan ziyosi, 2023, 304bet. |
| | **Qo'shimcha adabiyotlar** |
| 4. | D.S.Qosimova Menejment nazariyasi. Darslik Toshkent 2011 |
| 5 | Robert L.Malthis, John H.Jackson Sean R. Valentine. Patricia A. Megllch. Human Resourse Management. O'quv qo'llanma 2011 |
| 6. | О.С.Виханский А.И.Наумов Менеджмент. Учебник 2017. 672стр |
| 7. | Richard L.Draft. Management. Ninth edition. O'quv qo'llanma 2010 |
| | **Axborot manbaalari** |
| 8 | https://www.wgtn.ac.nz/business/current-students/study-resources/course-outlines/2005/trimester-3/mgmt/mgmt101-course-outline.pdf |
| 9 | https://msu.dvaoblaka.ru/media/2023/05/645072e7aa1c2_%D0%92%D0%B2%D0%B5%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5%20%D0%B2%20%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B5%D0%B4%D0%B6%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D1%82.pdf |




| | | |
|---|---|---|
| | *Boshqaruv usullari turlari.Korxonalarda boshqaruv usullarini takomillashtirish.*[1,4] | |
| M6 | **Boshqarishning tashkiliy strukturasi.** *Boshqaruv tuzilmalari haqida tushuncha. Boshqaruv bo'g'ini va bosqichlari. Boshqaruv tuzilmalarini tashkiliy turlari*[4,6] | 2 |
| M7 | **Menejment madaniyati va uslubi.** *Menejer tushunchasi va pag'onalari. Menejment madaniyati va rahbarlik uslubi. Kishilik fazilatlari.*[2.4] | 2 |
| M8 | **Ishlab chiqarish va xodimlarni boshqarish.** *Ishlab chiqarishni boshqarish tushunchasi. Mahsulot sifatini boshqarish. Xodimlarni boshqarish tamoyillari. Xodimlarni rejalashtirish jarayoni bosqichlari.* [4,12] | 2 |
| M9 | **Strategik boshqaruv va rejalashtirish.** *Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi. Strategik rejalashtirish jarayonining ahamiyati.*[2,7] | 2 |
| M10 | **Menejmentda shartnomaviy munosabatlar.** *Shartnomani tuzish asoslari va ularga oid qonun hujjatlari. Shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy hujjatlar. Shartnomalarning bajarilishida tomonlarning (mulkiy) javobgarligi.*[1,7] | 2 |
| M11 | **Menejmentda axborot va kommunikasiya.** *Menejmentda axborot va kommunikasiya tizimining tutgan o'rni. Axborot va axborotlar tizimi. . Kommunikatsion jarayon* [2,8] | 2 |
| M12 | **Menejmentda motivlashtirish.** *Motivlashtirish tushunchasi va ahamiyati. Motivlashtirish va ehtiyoj. Motivlashtirish uslubida boshqarishning o'ziga xos xususiyati.*[2,5] | 2 |
| M13 | **Nizo va stressni boshqarish.** *Nizo jarayoni va ularni kelib chiqish sabalari. Nizoning turlari va ularning ishlab chiqarishga ta'siri. Stress va uni boshqarish.*[2,6] | 2 |
| M14 | **Menejmentda tavakkalchilikni boshqarish.** *Tavakkalchilik tushunchasi va uni keltirib chiqaruvchi omillar. Tavakkalchilik va xavf turlari. . Qishloq xo'jaligida tavakkalchilikni boshqarish.*[2,7] | 2 |
| M15 | **Menejment samaradorligi.** *Samara va samaradorlik tushunchalari. Menejmentning samaradorlik mezonlari. Menejment tizimning iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari.* [4,14] | 2 |
| | **Seminar mashg'ulot (S)** | **30** |
| S1 | Kirish. Menejmentning nazariy asoslari. | 2 |
| S2 | Menejment qonunlari va tamoyillari. | 2 |
| S3 | Menejmentning madsadi va funksiyalari. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| S4 | Boshqaruv qarorlari, korxonalarda qaror qabul qilish. | 2 |
| S5 | Boshqaruv usullari. | 2 |
| S6 | Boshqarishning tashkiliy strukturasi. | 2 |
| S7 | Menejment madaniyati va uslubi. | 2 |
| S8 | Ishlab chiqarish va xodimlarni boshqarish. | 2 |
| S9 | Strategik boshqaruv va rejalashtirish. | 2 |
| S10 | Menejmentda shartnomaviy munosabatlar. | 2 |
| S11 | Menejmentda axborot va kommunikasiya | 2 |
| S12 | Menejmentda motivlashtirish. | 2 |
| S13 | Nizo va stressni boshqarish. | 2 |
| S14 | Menejmentda tavakkalchilikni boshqarish. | 2 |
| S15 | Menejment samaradorligi. | 2 |

| 6. | **Mustaqil ta'lim topshiriqlari** | **90** |
|---|---|---|
| 1 | Menejment fanining predmeti, metodi va evalyutsion rivojlanishi | 6 |
| 2 | Menejment qonunlari va tamoyillari | 6 |
| 3 | Boshqaruv maqsadi va unga qo'yiladigan talablar | 6 |
| 4 | Boshqaruv funksiyalari mazmuni , mohiyati va turlanishi | 6 |
| 5 | Korxonalarda boshqaruv qarorlari va ularga qo'yiladigan talablar. | 6 |
| 6 | Boshqaruv usullari, turlari, korxonalarda boshqaruv usullarini takomillashtirish. | 6 |
| 7 | Boshqaruv tuzilmalari, boshqaruv bo'g'ini va bosqichlari. | 6 |
| 8 | Menejment madaniyati va rahbarlik uslubi. | 6 |
| 9 | Ishlab chiqarishni boshqarish va xodimlarni rejalashtirish jarayoni bosqichlari. | 6 |
| 10 | Strategik boshqaruv va rejalashtirish jarayonining ahamiyati | 6 |
| 11 | Shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy hujjatlar | 6 |
| 12 | Menejmentda axborot va kommunikasiya tizimining tutgan o'rni. | 6 |
| 13 | Motivlashtirish uslubida boshqarishning o'ziga xos xususiyati. | 6 |
| 14 | Nizoning va stress turlari, ularning ishlab chiqarishga ta'siri | 6 |
| 15 | Menejment tizimning iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. | 6 |

**7. Ta'lim texnologiyalar va metodlari**

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;



- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**9. Talabalar bilimini baholash mezoni**

**a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lsa;
- nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish;
- tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.

**b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qilgan bo'lsa.

**d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**